

**HARBIY-VATANPARVARLIK VA HARBIY SAN'AT TARIXI.****Khasanov Nurmukhammad Khaydarali ugli***Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim migistr***Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich***Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti 2- bosqich kursanti***Alinazarov Nodirxon Nosirxonzoda***Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti 1- bosqich kursanti*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada harbiy vatanparvarlik, harbiy san'at tarixi, harbiy strategiya, operativlik san'ati, taktika, qadimgi zamon harbiy tarixi, o'rta asrlar harbiy tarixi, dastlabki yangi davr harbiy tarixi, XIX asr harbiy san'ati, XX va XXI asrlar harbiy san'ati yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *urush, jang, harbiy san'at, taktika, drujinalar, operativlik, korpus, birlashma, armiya, front, frontlar guruxi, qo'shinlar.*

Urush – murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy yoki siyosiy maqsadlar ko'zlangan qurolli, iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy kurashdan iborat bo'ladi. Urushlar xalqlar va davlatlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Urushlar o'zlarining xarakteriga ko'ra jamiyat taraqqiyotini sekinlastirishi ham, tezlatishi ham mumkin.

Butunjahon tarixida bo'lib o'tgan urushlar qanchalik ko'p bo'lmasin ular bir-birlaridan farq qiladilar. Urushlarning har biri faqat o'zigagina xos bo'lgan takrorlanmas xususiyatlarga ega. Bu urushlar bo'lib o'tgan sharoitlar, urushlarni kelib chiqish sabablari, urushlarning maqsadlari va urushlar olib kelgan natijalari turlicha bo'lgan.

Urushlar ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qanchalik turli-tuman va murakkab bo'lmasin, ular doimo ob'yektiv qonunlarga bo'ysunadilar. Urushlar qonunlarini, urushlarni tayyorlash va ularni olib borish usullarini ochish va ularni anglash – harbiy fanning mazmunini tashkil qiladi. Harbiy fan harbiy ishning nazariyasi hisoblanadi.

Harbiy fan – urushlar qonuniyatlari, urushni tayyorlash va aniq tarixiy sharoitlarda ularni olib borish to'g'risidagi bilimlar tizimidir. Urushlarning o'z davlatini hayoti bilan uzviy aloqasi, urushni borishi va uni yakunini faqat harbiy omillargagina (o'z armiyasining kuchi va armiyasining harbiy san'atiga) bog'liq bo'lmaydi, balki boshqa ko'plab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy omillarga ham bog'liq bo'ladi. Shuning harbiy fan nafaqat bevosita qurolli kurashlarni tayyorlash va ularni olib borish usullarini o'rganadi va ishlab chiqadi, balki o'z davlati, itifoqdoshlari va dushman davlatning iqtisodiy, ma'naviy imkoniyatlarini ham hisobini oladi.

Harbiy san'at — jang, amaliyot va to'laligicha urushga tayyorgarlik ko'rish va uni olib borish, shuningdek qo'shinlarni tashkil etish, o'qitish hamda tarbiyalash nazariyasi va amaliyotidir.





Harbiy san'atning ham o'tmishi, buguni hamda kelajagi mavjuddir.

Harbiy san'atning tarixini bilish (ya'ni qurolli kuchlarning dunyoga kelishi va rivojlanishi tarixini, qo'shinlarni tashkil etish shakllarini va ularni o'qitish hamda tarbiyalash usullarini, qurolli kuchlarni rivojiga ta'sir etuvchi omillarni bilish) zamonaviy harbiy san'atni hamda kelajakda uni rivojlanishi perspektivalarini to'g'ri va chuqur tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy san'at - harbiy fanning bir qismi. Zamonaviy harbiy san'atning tarkibiy qismi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan harbiy strategiya, operativlik san'ati va taktikadan iborat. Harbiy san'at ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy tuzum xarakteri bilan belgilanib, mamlakatning rivojlanish tarixi xususiyatlari, milliy xususiyatlar va an'analar, geografik sharoit va iqtisodiyotga bog'liq bo'ladi.

Harbiy strategiya - urushni olib borish nazariyasi va amaliyoti to'g'risidagi fandır. U harbiy san'atning bir sohasi bo'lib, harbiy san'atni namoyon bo'lish cho'qqisidir. Harbiy strategiya strategik operatsiyalar, kompaniyalar, to'raligicha urushga tayyorlanish nazariyasi, urushni rejalashtirish va uni olib borish masalarini qamrab oladi, urush qonuniyatlarini o'rganadi.

Operativlik san'ati - nazariy va amaliy fan, harbiy san'atning tarkibiy qismi. U strategiya va taktika orasidagi orasidagi o'rinni egallaydi. Operativlik san'ati strategiya tomonidan bazifa qilib qo'yilgan maqsadlarga erishish borasida yirik jangovar tuzilmalar (korpus, birlashma, armiya, front, frontlar guruxi, qo'shinlar) tomonidan mustaqil yoki birgalikda o'tkaziladigan amaliyotlarni tayyorlash va olib borish metodlarini o'rganadi.

Taktika - nazariy va amaliy fan, harbiy san'atning tarkibiy qismi. U o'ziga qo'shilmalar (brigada, diviziya, korpus), qismlar (kemalar) va qurolli kuchlar turlari bo'linmalari, maxsus qo'shinlar bo'linmalari tomonidan quruqlikda, suvda va havoda jangni tayyorlash va olib borish amaliyotini qamrab oladi.

Qadimgi zamon harbiy san'ati.

Ibtidoiy qabilalar jangchilari avvalda tashkil etilmagan to'da bo'lib jang qilganlar, ularni har biri yakka-yakka bo'lib jang qilgan. Davlatlar paudo bo'lishi bilan professional armiya va tashkiliy jangovar tartiblar paydo bo'ldi. Masalan, Vavilonda piyodalar 100 sherengagacha chuqurlikda saflanganlar. Ba'zi boyroq davlatlarda armiyani bir qismini yaxshi ta'lim berilgan otliq qo'shinlar tashkil etgan.

Qadimgi Gretsiyada urush boshlanishi bilan deyarli barcha ishsiz fuqarolar jangchiga aylanganlar. Qo'shinlarning asosini goplitlar deb nom olgan og'ir piyodalar tashkil etgan.

Qadimgi rimliklarda asosiy jangovar birlik legion bo'lgan. Legion uzluksiz falang ko'rinishidagi olti sherenga ko'rinishida saflangan. Yengil piyodalar (valitlar) old tomonda, otliqlar esa qanotlarda joylashgan.

Legionlar o'zlarining harakatchanligi bilan ajralib tugan, intizomni oson saqlagan.

Karfagen davlatining sarkardasi Gannibal mil. av. 216 y. dagi Kanna jangida bir paytning o'zida har 2 qanotdan zarba berish usulini qo'llab oz sonli kuchlar bilan





rimliklarning yirik qo'shinini to'liq qurshovga olib tor-mor keltirishga erishgan. Mil. av. 1-a. da Rim sarkardasi Yuliy Tsezar shtab tuzgan, jang maydonida qo'shinlar manyovrini mohirona amalga oshirgan, raqib qo'shini qanoti va old tomoniga qarshi hal qiluvchi zarba berish uchun kogortaning 3qatoridan foydalangan, bu bilan zaxira barpo etilishini boshlab bergan.

Qadimgi misrliklar, ossuriyaliklar, xitoylar va b. xalqlar mustahkam istehkomlar, yo'llar va ko'priklar qurishga mohir bo'lishgan. Qadimgi dunyoning ayrim mamlakatlari olib borgan urushlarda dengiz floti muhim rol o'ynagan, u quruqlikdagi qo'shinga yordam berib, ba'zan mustaqil harakat qilgan.

Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim davlatlarida asta-sekin harbiy nazariya vujudga kela boshlagan. Chunonchi, Xitoy sarkardasi va mutafakkiri Sun Tsz «Harbiy san'at haqida risola»sida harbiy kuchlarni davlatning mustahkamligiga bog'liq ekanligini, vaqt va geografik sharoit omillarning harbiy harakatlar olib borishga ta'siri, sarkardaning roli, urushga puxta tayyorgarlik ko'rish va raqibning zaif va kuchli tomonlarini o'rganishning ahamiyati va b. ni keltirib o'tgan.

Mo'g'ullar qo'shini (13—14-a. lar) yengil va og'ir qurollangan o'tliq askarlardan iborat bo'lib, uzoq masofaga harbiy yurish qilib, jang maydonida ko'pchilik bo'lib harakat qilgan. Qo'shin ilg'or qism, so'l va o'ng qanot va zaxiradan tashkil topgan.

O'rta asrlar harbiy san'ati.

Qadimgi germaniyaliklarda VII asrgacha qo'shin turlari ichida ustun turuvchi qo'shin piyodalar edi. Ular pona ko'rinishida saf tortardilar. Jangovar tartibda piyodalar bitta chiziqda keng intervallarda loylashgan. Ularni ortida arobalarda ularni oilalari, oziq-ovqat va o'ljalar bilan joylashgan.

Buyuk Karl o'sha davr harbiy san'atiga sezilarli tartib kiritgan, bir necha liniyalardan iborat jangovar tartib qurgan. Yengil piyodalar kamonlar bilan jang tayyorgarligini boshlagan; og'ir piyodalar nayza va qilichlar bilan jongga kirgan; temir zirx va shlyomlardagi o'tliqlar jangni oxiriga yetqazganlar.

Arablarda o'tliq qoshinlar ustun turgan. Ularni jangovar tartibida birinchi chiziqda o'tliq askarlar joylashgan. Jangga birinchi bo'lib o'tliq jangchilar kirganlar. Ikkinchi chiziqda "yordam kuni" va uchinchi chiziqda o'tliqlar kolonnasi va piyodalar falangi joylashgan. Eng sara drujinalar zahirada turganlar. Ulardan so'ng askarlarning oila a'zolari o'rnashgan arobalar joylashgan. Ayollar ba'zan janga ishtirok etganlar yoki baqirib jangchilarni yangi hujumga undaganlar.

Mongol o'tliqlarining jangovar tartibi avangard, uning ortidagi ustup bilan joylashgan o'ng va so'l qanotlar, qanotlar ortidagi umumiy zahiradan iborat bo'lgan. Mongollar dushmani ozlarining ichiga jalb qilib, songra ozining alohida qismlari yordamida temir xalqa bilan o'rab olishga intilganlar.

XIV asrda Yevropada o'qotar qurollardan foydalana boshlandi. Ammo bu qurollar jangga sezilarli a'sir ko'rsata olmadi. O'qotar qurollar qal'alarni qamal qilishda va mudofaa qilishda muhimroq ahamiyat kasb etdi.

Dastlabki Yangi davr harbiy san'ati.





XV asrdan G`arbiy Yevropada yollanma piyodalar ustun tura boshladi. O`qotar qurollar asta sekin takomillashib bordi.

Piyoda askarlar o`zlarini ega bo`lgan qurol-aslahalariga ko`ra yengil (arkebuz bilan qurollangan, keyinchalik mushketlarga almashtirilgan) va og`ir (himoya anjomlari hamda alebarda yoki uzun pika (nayza) bilan qurollangan) piyodalarga bo`lingan.

Mushketchilarning salmog`I tezda ortib borgan. Mushketlarni o`qlash ancha vaqt talab qilgani uchun on va undan ko`p sherengaga saflanib olishgan va kontr-marsh vositasida almashganlar.

Jang maydonlarida otliqlar o`z mavqeini piyodalarga bo`shatib bera boshlagan. Sharq xalqlari va slavyanlarda otliqlarni shiddatli hujumlari saqlanib qolgan. Otliqlardan otda va piyoda tartibda foydalanish g`oyasi paydo bo`lgan. Natijada karabinerlar, otliq arkebuzlar, dragunlar paydo bo`lgan.

Artilleriya takomillashib borayotgan, jang natijasiga ta`siri ortib borayotgan bo`lsada, ammo baribir u tuzilishi murakkabligicha qolmoqda edi, harakatchanligi ham past edi.

XIX asr harbiy san`ati.

1792 yili (birinchi koalitsiya urushini boshlanishida) Fransiyada yangi prinsiplarga asoslangan fransuz revolyutsion armiyasi yaratildi. Umumiy harbiy majburiyat kiritildi. Bu esa qurolli kuchlarni misli ko`rilmagan darajada butlash imkonini berdi. 1793 yili armiyada odamlar sonini 1 200 000 kishiga yetkazish imkonini berdi.


1796 yili Bonopart Napoleon qo`shinlarni oziq-ovqat bilan ta`minlash usullarini takomillashtirdi.

Buyuk fransuz revolyutsiyasi ishlab chiqqan harbiy san`atdagi qayta qurishni Napoleon Bonapart oxirigacha rivojlantirdi. Muvaffaqiyatlar uning harakatlarini oqladi. Yevropa xalqlari urushning yangi tizimiga xayrat bilan boqдилar. Butun armiya jangga kirganda ham Napalyon qo`lida katta rezerv mavjud bo`lar edi. Dushman tomonga razvedkaga o`zi shaxsan ishtirok etardi.

XIX asr texnikani rivojlanishi, jumladan harbiy texnikani rivojlanishi bilan xarakterlanadi. 1847 yili kesmali miltiqlarni o`qlashni osonlashtiruvchi Minye o`qi ixtiro qilindi. Kesmali miltiqlar silliq stvolli miltiqlarga nisbatan uzoqroqqa otadigan bo`ldi.

Kesmali qurollar katta mashtabda 1853-56 yillari Qrim urushida ishlatildi. Faqat silliq stvolli qurollar bilan qurollangan rus qo`shinlari chorasiz qoldilar.

1861-65 yillarda AQSHda bo`lib o`tgan Fuqarolar urushi kesmali qurolning qudrati va dala fortifikatsiyasining ahamiyatini ko`rsatib brdi. Qosinlarni tashish uchun temiryo`ldan, aloqa uchun telegrafdan foydalanildi. Janglarda revolverlardan samarali foydalanildi.





1866 yilda bo`lib o`tgan Avstriya-Prussiya urushi o`t ochish taktikasiga nisbatan savollarni hal qilib berdi. Prussiyaliklar Drayze quroli va stvoli og`zidan o`qlanadigan zambarakdan foydalangan.

Rus-Turk urushi (1877-78 yillar) strategiyaning eng asosiy prinsiplaridan biri – jangni boshidanoq eng yuqori kuchlanish zarurligini tasdiqladi. Urush okoplarni ulkan ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatib berdi. Qazuv qurollari (lopata) ham huddi miltiq singari zarur anjomligi e`tirof etildi.

XX va XXI asrlar harbiy san`ati.

Anglo-Bur urushi (1899-1902 yillar) XX asrning birinchi qurolli konflikti bo`ldi va urushlar tarixida yangi davr boshlanganini ko`rsatib berdi. Britaniya qo`shinlarining XIX asrga oid bo`lgan frontal hujumlari natija bermadi. Burlar panagoxlardan kuchli va aniq o`q yog`dirdilar. Ular britaniyaliklarning qo`l jangidan qochib aloqa yo`llari orqali marradan – marraga o`tib olardilar. Britaniyaliklar Pretoriya egallab olingach burlar partizanlik urushini boshlab yubordilar.

Rus-Yapon urushda (1904-05 yillar) pulemyotlar ishlatildi, okoplardan samarali foydalanildi. Frontni kengligi 150 kmgacha bordi.

Birinchi jahon urushida (1914-18 yillar) ko`pmillionli armiyalar ishtirok etdilar. Urush qatnashchilari aviatsiya, tank, avtomobil, zirhli avtomobil, ognemyot, zaharli gazlar, pistolet-pulemyot, dala telefoni, radio ishlatildi.

Ikkinchi jahon urushida (1939-45 yillar) avvalda qo`llanilgan qurollardan tashqari Yadroviy qurol ishlatildi. AQSH davlati 1945 yili Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaxarlariga atom bombasi tashladi. Natijada bir-necha soat ichida 300 000dan ortiq odam halok bo`ldi.

